

ERTA TURMUSH QURISHNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Xushnazarova Mamura G'affarjonovna

Norin tumani MMTBga qarashli 39-maktab psixologi

Annotatsiya: “Oila - hayotning abadiyligini, avlodning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf odatlarimizni saqlaydigan shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir” - deydi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Ushbu maqolada erta turmush oqibatida kelib chiqayotgan muommolar va ularning kelajak avlod, olia istiqboli uchun ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Islom dini, ma'naviyat barkomollik, yetuklik davri, individual fuqorolik pasporti, bepustlik, ajrim sabablari.

KIRISH

Oila nafaqat bir yurtning balki jamiyatning kichik bir bo'g'ini. Aytish joizki, bugungi kunda oila masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi oiladan. Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma'naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Bu davlat zimmasidagi sharaflari va mas'uliyatli vazifadir.

Asrlar davomida islom shariatining mut'assiblari hukmron bo'lgan o'tmishimizda qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi degan noto'g'ri tushunchalar bor edi. Bu asossiz gap. Islomda hali balog'atga yetmagan, turmushga tayyor bo'lmagan o'smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo'q. Hatto, balog'atga yetgan jismoniy tarafdin turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa uning uylanishi shart emasligi aytiladi. Masalaga tibbiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, hozir shifokorlar 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug'uruq holatida qiynalib qolayotganini aytib, ularni 19-20 yoshlarida turmushga berishini yigitlarga 20-22 yoshlarda uylanishini tavsiya qilishmoqda.

Ikki yosh rasmiy nikohdan o'tish uchun to'ydan bir oy oldin joylardagi Fuqorolik holati dalolatnomalarini yozish FHDYO idoralariga ariza topshiradi. shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqorolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelin kuyovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Navnihol yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Kamqonlik yurak qon tomir, buyrak xastaliklarini davolamay turib, homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan. Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratayotgan bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakillantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Zero, oilada yigit va qiz o'z vazifa va mas'uliyatlarini ado etishlari, sog'lom zurriyotlarni dunyoga keltirishlari uchun avvalo o'zlari sog'lom bo'lishlari shart. Hozirga kelib, tibbiy ko'rikning ahamiyatini aksariyat ota onalar tushunib yetdilar. Ammo shunday bo'lsada, "Hali turmushga chiqmagan yosh qiz turli yo'nalishdagi shifokorlarga uchrab yurishning nima keragi bor?" deb tor mulohaza yuritadiganlar ham yo'q emas. Ana shunday fikrlash sababli tibbiy ko'rikning talab darajasida o'tkazilishiga e'tibor bermay, giyohvandlikka berilgan yoki nasliy kasalligi bo'lgan kuyovga uzatish oqibatida baxtsiz qolgan qizlar, pushaymon chekkan ota-onalar hayotda uchrab turibdi.

Shu o'rinda o'tmishga nazar solib, allomalarimizning bu boradagi fikrlari bilan tanishsak: Bayhaqiy bu borada "Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz, ayol, rafiq, ona, beka jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarni to'kis ado etishga qiynaladi." Degan fikrlarni aytgan

Erti turmush va uning fojealari haqida targ'ibot tashviquot ishlari olib borilishiga qaramasdan, biz yashayotgan ushbu jamiyatda qizlarini erta turmushga berib, so'ng afsuslanadigan ota onalar afsuski, yo'q emas. Qizlar o'qiyman men orzu maqasadlarimni amalga oshiraman deb ammo ota onasini fikriga qarshi borolmay umidi so'ngan orzulari armonga aylangan qizlar soni ko'payib bormoqda. Farzandlarni erta uylantirish yoki uzatish odati natijasida, hali na ma'lumoti, na tayinli kasb-hunari bo'lgan yigit-qizlar oila qurishib, moddiy jihatdan to'la ota-ona qaramog'ida bo'lishadi. Ayni paytda ko'pgina oilalarning iqtisodiy nochor ahvoli ham yosh oilalarning buzilishiga olib kelayotgan holat ekani aytiladi.

"To'yib ovqat yeyish ham hozir barcha oilada yo'q hisobi-da. Asosan shu iqtisodiy muammo tufayli ajralib ketishyapti. Iqtisodiy muammo deganda, hech bo'lmasa bir haftada yarim kilo go'sht yeyish, asal yeyish, qand yeyish, shakar yeyish, chunki qishloqlarda odamlar pul ko'rmaydi, pul nimaligini bir yilda bir marta biladi, ya'ni paxta tergan paytida. O'shanda ham bir marta, ikki marta 20 ming, 30 ming so'm pul ko'rib qolishi mumkin, shu bilan boshqa pul ko'rmaydi".

"Yoshlarning kelishmovchiligi yetishmovchilikdan. Hozirgi yoshlarning hammasini yuragi tor bo'lib ketgan. Oilada ishqilib bola-chaqa bo'ladi, ularga kiyim-kechak kerak, hozir nonlar ham qimmat bo'lib ketyapti. Biri ro'zg'orga yetsa, biri kiyimiga yetmaydi. Muammo shundan kelib chiqadi", - deyishadi ayrim o'zbekistonliklar.

O'zini Hamza dem tanishtirgan kishiga ko'ra, respublikadagi mavjud ishsizlik ham yosh oilalar parokandaligiga boisdur.

“17-18 yoshda bu hali o’zi ishlab biror narsa topa olishi kerak. Ayniqsa hozirgi sharoitda ish topa olishning o’zi bir muammo. Ota-ona yoshi 50 dan oshgan bo’lsa, pensiya oladi, 10 ming-15 ming. Shu nafaqaga qaraydi. Ishsizlar yollanib ishlashadida, kingadir, nimagadir”, - deydi Hamza ismli kishi.

21 yoshli talaba qiz fikricha, hozirgi paytda ba’zi yigitlarning giyohvandlik va boshqa jinoiy ishlarga qo’l urayotgani ham yosh oilalar turmushi buzilishiga sabab bo’lmoqda.

“Yoshlar o’rtasida erta turmush qurib, erta ajralishlarning sababi asosan yigitning yomon odatlarga berilishi. Masalan chekishi, ichishi, yoki yomon yo’llarga kirib o’g’rilik, bezorilik qilishi, o’zining jufti-haliloni tushunmasligi va narkomaniyaga kirib kelishiga asosan ota-onasining befarqligi. Bitta qo’shnim bor edi, bu bola hozir Rossiyaga qochib ketgan. Qamalib ham chiqqan edi bu bola. Hozir xotini qiynalib yuribdi-da, tekkaniga ming pushaymon bo’lib”, - deydi talaba qiz.

25 yoshli Iroda 19 yoshida turmush qurgan. Biroq hozir u beva. Irodaga ko’ra, so’nggi yillarda yashirin yoki oshkor qo’sh xotinlikning odat tusiga kirgani unga o’xshash bevalar sonini ko’paytirmoqda.

“Yaxsh ko’rib turmush qurganmiz, lekin oradan ikki oy o’tmasdan ‘mening turmush o’rtog’im edi, men bilan yashagan edi’, deb chaqaloq ko’tarib bitta ayol kelgan. Shuning orqasidan oilamizda ko’p janjal bo’lgan. Ketib qolay desam men ham ota-onamdan uyalganman, chunki o’zim xohlab tekkanman. Chidab yuraverganman. Oxiri borib ikkita farzandli bo’lgandan so’ng turmushimiz buzilib ketdi”, - deydi Iroda.

Ba’zi kuzatuvchilarga ko’ra, farzandli va yo yolg’iz qolgan yosh beva ayollarning o’z ota-onasi xonadoniga yana singib ketishi og’ir kechadi. O’z kunini o’zi ko’rishga harakat qilayotgan bunday yoshlar ko’p holda fohishalik yo’liga ham kirib ketishmoqda.

O’zbekistonda nisbatan yosh oilalarning paydo bo’lishini milliy an’ana sifatida talqin qiluvchilar ham topiladi. Biroq ko’plab yoshlar va ziyolilarning bu an’anaga qarshi chiqayotgani jamiyat taraqqiyoti jarayonida ayrim urf-odatlar sekin-asta iste’moldan chiqarib tashlanishi lozimligini ko’rsatmoqda.

XULOSA

Qisqa qilib aytadigan bo’lsam tug’ruqxonaga borgan va va farzandini qo’liga ololmay vafot etibdi ham bola ham ona bu fojidan ikki taraf ham afsusda ammo keched. Bu muammolarni hal qilish siz-u biz kabi yoshlarning o’z qo’limizda. Tashabbus iqtidor bilm va salohiyatli bo’lishimiz kerak. Mening fikrimcha yoshlar 9 yoki 11 yillik umumta’lim maktabi yoki undan so’ng litsey va kollej ta’limini olishlari shart. Zero, dinimiz ta’limotlariga ko’ra ilm olish, ma’rifatli bo’lish, hayot uchun zarur bo’lgan barcha ko’nikmalarni o’rganish har bir qiz bola uchun ham farzdir. Bordi-yu shundan oldin qursalar, o’qish ham chala, oila yumushlari ham, uy bekaligi va boshqa

ishlar ham chala bajarilishiga yo'l ochilgan bo'ladi. Muhimi, ilmiy va kasb-hunarli ayolgina farzandining komil inson bo'lishiga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. _T._O'zbekiston , 2016-56 b.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi” Qonun hujjatlari
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari” to'g'risida prezident farmoni
4. A.Qayumov. Qo'qon adabiy muhiti, Toshkent, O'zSSR FA nashriyoti, 1961-yil, 313-bet.